

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Qo'l yozma huquqida

KARIMOVA NARGIZA ABDUMO'MINOVNA

***Dasturlash asoslari, tizimlari va uning amaliy tadbiqu
(Paskal dasturlash tili misolida)***

5A110701-Ta'limda axborot texnologiyalari

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
Dotsent R.A.Ro'ziyev

NAVOIY-2013 YIL

MUNDARIJA

<i>KIRISH</i>	3
I-BOB. DASTURLASH ASOSLARI VA UNING IMKONIYATLARI	7
1.1 Algoritmash haqida tushuncha.....	7
1.2 Dasturlash tillari haqida tushuncha.....	8
1.3 Paskal tilining asosiy tushunchalari.....	11
II-BOB. PASKAL DASTURLASH TILINI MATEMATIK VA FIZIK MASALALARIGA TADBIQI HAQIDA	12
2.1 Paskal dasturlash tilini matematik masalalarga tadbiqi.....	12
2.2 Paskal dasturlash tilini fizik masalalarga tadbiqi.....	26
III-BOB. PASKAL DASTURLASH TILINI OLIY MATEMATIKA MASALALARIGA TADBIQI	46
3.1 Paskal dasturlash tilida qatorlarni hisoblash.....	46
3.2 Paskal dasturlash tilida oliy algebra masalalarini yechish.....	50
3.3 Xususiy hosilali differentsial tenglamalarni taqribiy yechish.....	66
XULOSA	75
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	76

KIRISH

Insoniyat tarixining ko'p asrlik tajribasi ezgu go'yalardan va sog'lom mafkura hamda zamonaviy bilimlardan maxrum har qanday jamiyat uzoqqa bora olmasligini ko'rsatdi. Shuning uchun, mustaqillikka erishgan mamlakatimiz o'z oldiga ozod va obod vatan, demokratik jamiyat barpo qilish, erkin va farovon hayot qurish, rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olish kabi muhim vazifalarni qo'ydi. Bu vazifalarni hal qilish asosan yosh avlod zimmasiga tushadi. Yoshlarni kelajak jamiyatning faol quruvchilari bo'lishi uchun ularni fan va texnikaning eng ilg'or yutuqlari hamda kuchli bilimlar bilan qurollantirish, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay bilish ana shu yo'ldagi eng muhim talablardan biri hisoblanadi. Bu narsa ayniqsa EHM bilan aloqador kundalik masalalarni yechishda yaqqol ko'rinadi. Demak, yoshlardan zamonaviy EHMlar bilan ishlashni o'rganish, halq xo'jaliginining turli masalalarini yechishga mo'ljallangan dasturiy ta'minot bilan tanishish hamda dasturlash vositalari yordamida hali EHMda yechilmagan masalalar uchun yangi dasturlar yaratishni talab qilinadi.

Darvoqi, har bir jamiyatning bugungi kuni va kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi.

Respublikamizda oshiralayotgan islohotlarining bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kushi – har tomonlama rivojlangan barkamol insondir. Mamlakatimizda rivojlanishning muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlanishlarning takomillashgan tizimini yaratishdan iborat.

Mavzuning dolzabligi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ni amalga oshirishda uzluksiz ta’lim tizimining tuzilmasi va mavzusini zamonaviy *ilmiy fikrlar yutuqlari* va ijtimoiy tajribaga tayangan holda *tub islohotlari ko’zda tutulgan*. Buning uchun, avvalo, uzluksiz ta’lim tizimining barcha shakldagi ta’lim muassalarida ta’lim jarayoni sifatida ta’minlovchi ilg’or ilmiy-metodik jihatdan asoslangan uslublarni amalda qo’llash lozim. Fanda texnika va ilg’or texnologiya yutuqlaridan foydalangan holda yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishning maqsad, maznun, uslub va vositalarini ilmiy jihatdan ta’minlash pedagogika faning dolzarb muammolarning biri hisoblangan.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta’lim tizimini orqali shaxsning har tomonlama barkamol bo’lib yetishining ko’zda tutadi. Shaxs uzluksiz ta’limda va kadrlar tayyorlashda ta’lim va xizmatlarining iste’molchisi sifatida namoyon bo’ladi.

Shaxs ta’lim xizmatlarining ishlab chiqaruvchisi sifatida ta’lim jarayonida bilim va tajribani talaba (yoki o’quvchi)ga uzatish, ishlab chiqarish moddiy muhiti sharoitida, shuningdek, fan, madaniyat va ta’lim xizmatlarida ishtirok etadi.

Respublikada shaxslarga o’z ijodiy salohiyatini amalga oshirish uchun mutaxassislik ta’lim dasturini tanlash huquqi berilgan. Oliy ta’lim uzluksiz ta’limda muhim o’rinni egallaydi. Oliy, umumiy o’rta, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limlari asosida uzluksiz ta’lim tizimining mustaqil turi hisoblanadi va O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu hujjatlarda oliy ta’limning belgilangan vazifalaridan biri yuqori saviyada o’qitishni ta’minlash va malakali kadrlarni zamonaviy ta’lim kasb-hunar dasturlari asosida tayyorlashdir. *Oliy ta’lim o’qituvchisining faoliyati shaxsni tarbiyalash jarayonida ta’lim-tarbiya olish sharoitlarini yaratish, uning ehtiyojlarini qondirish va qobiliyatlarini ochishhamda rivojlantirishga yo’naltirilgan bo’lishi lozim.* Oliy maktab o’qituvchisining malakasi maxsus va pedagogik fanlar bilan yoritiladigan ikki qirraga ega bo’lishi lozim va u doimo: “Nima uchun o’qitish kerak?”, “Qanday

o‘qitish kerak?” degan savollarga javob topish zarur. Bu javoblar pedagogika fanining asosiy qoidalar va qonuniyatlariga mos holda talqin qilinishi, shuningdek, ta’lim xususiyatlari e’tiborga olingan bilimlarga asoslangan bo‘lishi lozim. Pedagogikaning muhim mummolaridan biri o‘qituvchining mutaxassisligiga faoliyatining asosini tashkil etish shart bo‘lgan pedagogik jarayon nazariyasini ishlab chiqishdir.

Taqdidotning maqsad va vazifalari. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi ***“Dasturlash asoslari, tizimlari va uning amaliy tadbiri”*** deb nomlanib, hozirgi kunda ta’lim sohasida fanlarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va innovatsion ishlanmalarning fanlarni o‘qitishda tutgan o‘rniga bag‘ishlangan.

Uzviylik ta’lim tizimida ortiqcha takroriylikka chek qo‘yib, avvalo, jamiyatning ma’naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy– texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o‘quv- tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o‘z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi.

Uzluksiz ta’lim chuqur, har tamonlama asosli ta’lim-tarbiya berish, mutaxassis kadrlar tayyorlashning turli shakl, usul, vosita, uslub va yo‘nalishlarining mukammal uyg‘unligidan iboratdir. Uzluksiz ta’lim sifatini turli komponentalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, muayyan usullar va uslublarning ta’lim jarayonida oqilona tatbiq etilishini ta’minlaydi[6].

Tadqiqotning ob’yekti va predmeti. Ushbu magistrlik dissertatsiyasida tadqiqotning ob’yekti va predmeti sifatida Dasturlash asoslari fani olingan. Dasturlash asoslarini fanidagi “Paskal dasturlash tilida” qiziqarli matematik, fizik va oliy matematik masalalarni ba’zi bir masalalarining dasturlari tuzib ko‘rsatilgan.

Dissertatsiya mavzusi yangiligi quyidagilardan iborat:

- ❖ Iqtisodiy va texnik jarayonlarni loyihalashda paskal dasturlash tilining imkoniyatlari ko`rsatib berilgan;
- ❖ Fizik jarayonlarni loyihalashda paskal dasturlash tilining imkoniyatlari ko`rsatib berilgan;

Disstertatsiyada tavsiya qilingan natijalar nazariy va amaliy jihatdan asoslanganligi, yetuk olimlar tomonidan yaratilgan va tavsiya etilgan metodlar umumta`lim maktablari o`quvchilari va kasb hunar kollejlari, akademik litsyelar, oliy o`quv yurti talabalari hamda mustaqil foydalanuvchilar uchun mo`ljallangan.

Tadqiqot natijalarini ilmiy va amaliy ahamiyat. Magistrlik dissertatsiyasida tadqiqot natijalari amaliy ahamiyatga ega bo`lib, Dasturlash asoslari (Paskal dasturlash tili)fanini amaliy masalalarga tadbqiqi va uning mohiyatini to`liq ochib berishga hizmat qiladi. Masalan, Masalalarni yehimlarini tez va anq hisoblashda qo`llash mumkin. II-bobda o`ndan ortiq iqtisodiy, va ishlab chiqarishga zarur bo`lgan masalalarni dasturi tuzib ko`rsatildi. II-bobning ikkinchi qismida ba`zi bir fizik masalalarning dasturlari tuzib ko`rsatildi. III-bobda esa, Oliy matematikaning ba`zi bir masalalar(qatorlar, chiziqli tenglamalar sistemasi, matritsalar ustida amallar, laplas tenglamalari)ga doir paskal dasturlash tilida dasturlar tuzib ko`rsatildi.

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi:

Dissertatsiyaning umumiy hajmi 78-bet bo`lib, u kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I BOB. DASTURLASH ASOSLARI VA UNING IMKONIYATLARI

1.1. Algoritmlik haqida tushuncha.

Algoritm soʻzi algoritmi soʻzidan olingan boʻlib, u IX- asrning buyuk matematigi bobokolonimiz Muhammad al-Xorazmiy nomining lotincha shaklidir. Informatika sohasida algoritm tushunchasi asosiy tushuncha boʻlib, u geometriya kursidagi nuqta, toʻgʻri chiziq va tekislik, matematikadagi toʻplam, kimyodagi modda, fizikadagi fazo hamda vaqt tushunchalari kabi fundamental tushuncha hisoblanadi. Algoritmga aniq bir taʼrif berish mushkul. Shunday boʻlsada, algoritmning mohiyatini aniq tushuntirish mumkin. Algoritm – biror masalani yechish uchun bajarilishi zarur boʻlgan buyruqlarning tartiblangan ketma-ketligi. Tuzilgan algoritmni uning yozilish qoidalarini tushunadigan va unda koʻrsatilgan buyruqlarni bajarish imkoniga ega boʻlgan insonning oʻzi yoki texnik qurilma (masalan, kompyuter) bajarishi mumkin[1,2,3,4,5,13].

Odamlar har kuni bajaradigan ishlarida oʻzlari bilmagan holda shu ishlarni bajarish algoritmlikdan foydalanadilar. Masalan, kompyuterdan foydalanish, non yopish, tamom tayyorlash, telefon avtomatidan foydalanish, avtomobilni boshqarish, kitob oʻqish, koʻcha harakati qoidalariga rioya qilish, televizor yoki radiodan foydalanish va hokazo. Albatta, odamlar yuqorida keltirilgan yumushlarni har doim bajarib yurganligi bois, ularni bajarish uchun hech qanday aniq koʻrsatmalarga muhtojlik sezmaydilar. Lekin yuqoridagi yumushlarni birinchi marotaba bajarayotgan odam aniq koʻrsatmalarsiz uni bajara olmaydi. Masalan, hech qachon kompyuterdan foydalanib koʻrmagan odam aniq bir koʻrsatmasiz bu ishni bajara olmaydi. Demak, odamlar oʻzlariga tanish boʻlgan ishlarni yoki masalalarni bajarish zarur boʻldigan koʻrsatmalarni qachonlardir, qayerlardandir olganlar yoki oʻrganganlar. Algoritmni bajarishda koʻrsatmalarni berilgan tartibda bajarish kerak boʻladi [11,12,13,14].

1.2. Dasturlash tillari haqida tushuncha.

Foydalanuvchi kompyuter bilan muloqat qilish uchun kompyuter “tili” ni bilishi ham talab qilinadi. Kompyuter tushunadiga “til” dasturlash tili deb ataladi. Biror masalani kompyuterda yechish uchun, avvalo, uning algoritmi tuzilishi va bu algoritmnini kompyuter tushunadigan ko`rsatmalar va qonun-qoidalar asosida yozilishi kerak bo`ladi. Bu yozuv dastur bajarishi mumkin bo`lgan ko`rsatmalarning izchil tartibidan iborat ekan. Kompyuter uchun dastur tuzish jarayoni dasturlash va dasturnituzadigan kishi dasturchi deb ataladi.

Hozirgi kunda hisoblash, muhandis-texnik, iqtisodiy, matnli va sonli axborotlarni taxlil qilish va boshqa masalalarni yechish uchun yuqori darajadagi dasturlash tillari mavjud. Bular jumlasiga Beysik, Fortrant, Paskal, Kobol va boshqa tillarni kiritish mumkin.

Beysik dasturlash tili 1964 yili AQSHning Dortmund kollejji ilmiy xodimlari Jon Kemeni va Tmes Kurtsi tomonidan turli hisoblashlarga doirmasalarni kompyuter bilan muloqat holda hal qilishi uchun yaratiladi. “Basic” so`zi Beginners Allpyrpose Sumbolic Instruction Code dan olingan bo`lib, o`zbek tilida “boshlovchilar uchun mo`ljallangan ko`p maqsadli, belgili ko`rsatmalar tili” degan ma`noni bildiradi. Beysik dasturlash tili soddaligi va kompyuter xotirasiga quyiladigan talablarning juda kamligi sababli bu dasturlash tili boshqa dasturlash tillari qatori butun dunyoda shaxsiy kompyuterlar uchun keng foydalanadigan til bo`lib qoldi.

Fortran tili 1954 yilda ishlab chiqilgan. Fortran so`zi inglizcha Formula translator so`zidan olingan bo`lib, formula tarjimonchisi degan ma`noni bildiradi. Fortran tili muhandislik va ilmiy texnik masalalarni yechishga mo`ljallangan dasturlash tili hisoblanadi.

Paskal dasturlash tili Shveysariyalik professor Virt Niklaus tomonidan 1971 yilda yaratilgan bo`lib, 1981 yilda Paskal tilining xalqaro standarti qabul qilingan. Paskal tili jamlovchi mashinani yaratgan fransuz fizigi Blez Paskal xotirasiga

quyilgan. Paskal tilidan ilmiy texnik, muhandislik masalarni yechishda keng ko`lamda foydalaniladi.

Kobol tili 1959 yilda yaratilgan bo`lib, iqtisodiy xarakterga ega bo`lgan masalalarni yechishga mo`ljallangan [1,14,23,24,26,28].

Hozirgi paytda zamonaviy dasturlash tillaridan biri hisoblangan Delphi dasturlash tilidan keng foydalaniladi. Delphi dasturlash tili - bu Windows OT muhitida ishlashga mo`ljallangan bo`lib, u 1995-yilda Borland kompaniyasi dasturlari guruhi Chak (Chuck) va Denni (Danny) tomonidan yaratilgan. Mazkur dastur o`zining ba`zi bir xususiyatlari bilan boshqa dasturlash tillaridan ajralib turadi. Shu sababdan bugungi kunda Delphi dasturlash tili akademik litsey, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o`quv yurti fan dasturlariga kiritilgan [6,15,16,24,25,38].

C++ dasturlash tili C tiliga asoslangan. C esa o`z navbatida B va BCPL tillaridan kelib chiqqan. BCPL 1967 yilda Martin Richards tomonidan tuzilgan va operatsion sistemalarni yozish uchun mo`ljallangan edi. Ken Thompson o`zining B tilida BCPL ning ko`p hossalarni kiritgan va B da UNIX operatsion sistemasining birinchi versiyalarini yozgan. BCPL ham, B ham tipsiz til bo`lgan. Yani o`zgaruvchilarning ma`lum bir tipi bo`lmagan - har bir o`zgaruvchi kompyuter hotirasida faqat bir bayt yer egallagan. O`zgaruvchini qanday sifatda ishlatish esa, yani butun sonmi, kasrli sonmi yoki harfdekmi, dasturchi vazifasi bo`lgan[32,37].

C tilini Dennis Ritchie B dan keltirib chiqardi va uni 1972 yili ilk bor Bell Laboratoriyasida, DEC PDP-11 kompyuterida qo`lladi. C o`zidan oldingi B va BCPL tillarining juda ko`p muhim tomonlarini o`z ichiga olish bilan bir qatorda o`zgaruvchilarni tiplashtirdi va bir qator boshqa yangiliklarni kiritdi. Boshlanishda C asosan UNIX sistemalarida keng tarqaldi. Hozirda operatsion sistemalarning asosiy qismi C/C++ da yozilmoqda. C mashina arhitekturasiga bog`langan tildir. Lekin yahshi rejalashtirish orqali dasturlarni turli kompyuter platformalarida ishlaydigan qilsa bo`ladi[31,35,36].

1983-yilda, C tili keng tarqalganligi sababli, uni standartlash harakati boshlandi. Buning uchun Amerika Milliy Standartlar Komiteti (ANSI) qoshida X3J11 texnik komitet tuzildi. 1989 yilda ushbu standart qabul qilindi. Standartni dunyo bo'yicha keng tarqatish maqsadida 1990 yilda ANSI va Dunyo Standartlar Tashkiloti (ISO) hamkorlikda C ning ANSI/ISO 9899:1990 standartini qabul qilishdi. Shu sababli C da yozilgan dasturlar kam miqdordagi o'zgarishlar yoki umuman o'zgarishlarsiz juda ko'p kompyuter platformalarida ishlaydi[30,33].

C++ 1980 yillar boshida Bjarne Stroustrup tomonidan C ga asoslangan tarzda tuzildi. C++ juda ko'p qo'shimchalarni o'z ichiga olgan, lekin eng asosiysi u ob'ektlar bilan dasturlashga imkon beradi[34,35,37].

Dasturlarni tez va sifatli yozish hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etmoda. Buni ta'minlash uchun ob'ektli dasturlash g'oyasi ilgari surildi. Huddi 70-chi yillar boshida strukturali dasturlash kabi, programmalarini hayotdagi jismlarni modellashtiruvchi ob'ektlar orqali tuzish dasturlash sohasida inqilob qildi[30,31,32,33,34,35,36,37].

C++ dan tashqari boshqa ko'p ob'ektli dasturlashga yo'naltirilgan tillar paydo bo'ldi. Shulardan eng ko'zga tashlanadigani Xerox ning Palo Altoda joylashgan ilmiy-qidiruv markazida (PARC) tuzilgan Smalltalk dasturlash tilidir. Smalltalk da hamma narsa ob'ektlarga asoslangan. C++ esa gibrid tildir. Unda C ga o'hshab strukturali dasturlash yoki yangicha, ob'ektlar bilan dasturlash mumkin. Yangicha deyishimiz ham nisbiydir. Ob'ektli dasturlash falsafasi paydo bo'lganiga ham yigirma yildan oshayapti.

C++ funksiya va ob'ektlarning juda boy kutubhonasiga ega. Yani C++ da dasturlashni o'rganish ikki qismga bo'linadi. Birinchisi bu C++ ni o'zini o'rganish, ikkinchisi esa C++ ning standart kutubhonasidagi tayyor obyekt funksiyalarni qo'llashni o'rganishdir[34,35,36].

1.3. Paskal tilining asosiy tushunchalari.

Paskal tili ilmiy texnik, muhandislik masalalarini yechishda keng ko`lamda foydalanadigan algoritmik tildir. Mazkur algoritmik tilni 1971 yilda Shveysiyalik professor Virt Niklaus yaratdi. Paskal algoritmik tili, jamlovchi mashinani yaratgan fransuz fizigi Blez Paskal xotirasiga qo`yilgan. Paskalda ko`pgina tillarning yaxshi xususiyatlari mujassamlashgan. Paskal tilidan ilmiy texnik, muhandislik masalalarini yechishda keng ko`lamda foydalaniladi. O`zining soddaligi, mantiqiyli va samaraligi bilan bu til butun dunyoga tez tarqaldi. Hozirgi paytda barcha hisoblash mashinalari, xususan, kompyuterlar ham shu tilda ishlash imkoniyatiga ega. Paskalda tuzilgan dasturlar matnining to`g`riligini osonlik bilan tekshirish mumkinligini, ularning ma`nosi yaqqol ko`zga tashlanishi va oddiyligi bilan ajralib turadi. Paskal tilida operatorlar soni minimal darajada kamaytirilgan. Shuning uchun Paskal yuqori darajadagi til hisoblanadi. Barcha tillar kabi Paskal ham bir necha ko`rinishlarga ega bo`lib, bu ko`rinishlar turli xil kompyuterlarning imkoniyatlarini to`laroq va samaraliroq ishlatish istagida kelib chiqqan. Paskal kompilasiya qilinadigan bir butunligicha tarjima qilinadigan tillar guruhiga kiradi, ya`ni Paskalda tuzilgan dasturni mashina bajarishda o`zining mashina kodlariga so`zma-so`z emas, balki to`laligicha tarjima qiladi. Shunday tarjima qiluvchi dasturlar kompilyatorlar deyiladi. Paskal tili birnecha kompilyatorlarga ega. 1981 yilda Paskal tilining Xalqaro standarti qabul qilingan. IBM PC kompyuterlarida Paskal tilining Turbo Paskal ko`rinishi keng qo`llaniladi. [15,16,24,30].

Bu til rivojlantirilib Turbo Pascal, Borland Pascal va keyinchalik esa Object Pascal nomini oldi. Hozirgi kunda Object Pascal tili asosi bo`lgan Windows muhitida ishlovchi Delphi dasturiy vositasida murakkab professional dasturlar ishlab chiqilmoqda[38].

II BOB. PASKAL DASTURLASH TILINI MATEMATIK VA FIZIK MASALALARIGA TADBIQI HAQIDA.

2.1. Paskal dasturlash tilini matematik masalalarga tadbiqu.

1-masala. Agar 1 – kombayn hosilni x soatda, 2 – kombayn y soatda, ikkala kombayn birgalikda hosilni z soatda yig`ib olsa, u holda

$$\frac{1}{x} + \frac{1}{y} = \frac{1}{z}$$

bo`ladi. Bir kombayn daladagi hosilni 15 soatda, boshqasi esa shu hosilni 10 soatda yig`ib olishi mumkin. Ikkala kombayn birgalikda hosilni qancha soatda yig`ib olishi mumkin?

Yechish: yuqoridagi tenglikka $x=15$, $y=10$ ni qo`yib z ni topamiz:

$$\frac{1}{z} = \frac{1}{15} + \frac{1}{10} = \frac{2+3}{30} = \frac{5}{30} = \frac{1}{6}$$

Javob: $z=6$

Dastur kodini umumiy ko`rinishini keltiramiz:

```
program ish;
var
x,y,z:real;
begin
write('x='); read(x);
write('y='); read(y);
z:=x*y/(x+y);
write('z=',z);
end.
```

2-masala. Agar to`g`ri to`rtburchakning eni  $P\%$  ga, bo`yi $q\%$ ga kattalashtirilsa to`g`ri to`rtburchakning yuzi necha foizga o`zgaradi.

Yechish. To`g`ri to`rtburchakning bo`yi b , enini esa a deb belgilasak, va bu kattaliklarni mos ravishda $P\%$ va $q\%$ oshirsak:

$a + \frac{p \cdot a}{100} \%$; $b + \frac{q \cdot b}{100} \%$; ga o'zgarishini topish qiyin emas. Odatda to'g'ri to'rtburchakning yuzi $S_1 = a \cdot b$ formula yordamida hisoblanadi. Tomonlari o'zgartirilgandan so'ng yuza

$$S_2 = (a + \frac{p \cdot a}{100} \%) \cdot (b + \frac{q \cdot b}{100} \%) \text{ ko'rinishda bo'ladi.}$$

Dastlabki S_1 yuzani, keyingi S_2 yuzadan ayiramiz va natijada quyidagini hosil qilamiz:

$$S_2 - S_1 = (a + \frac{p \cdot a}{100} \%) \cdot (b + \frac{q \cdot b}{100} \%) - a \cdot b.$$

$$S_2 - S_1 = a \cdot b + \frac{a \cdot b \cdot q}{100} + \frac{b \cdot a \cdot p}{100} + \frac{a \cdot b \cdot p \cdot q}{1000} - a \cdot b = \frac{a \cdot b}{100} \cdot (q\% + p\% + \frac{pq}{100} \%)$$

Bu toifadagi masalalarni yechish uchun quyidagicha proporsiya tuzamiz:

$$\frac{\frac{a \cdot b}{100} \cdot (q\% + p\% + \frac{pq}{100} \%)}{a \cdot b} = \frac{x}{100\%}$$

$$x \cdot a \cdot b = 100 \cdot \frac{a \cdot b}{100} \cdot (q\% + p\% + \frac{pq}{100} \%)$$

Hosil bo'lgan proporsiyadan noma'lumni topsak, u holda quyidagi tenglik kelib chiqadi:

$$x = (q\% + p\% + \frac{pq}{100} \%) \quad (1)$$

Keltirilgan formula yordamida to'g'ri to'rtburchakning tomonlari m'lum foizga kattalashtirilganda yuzalarining necha foizga oshganligini hisoblash mumkin.

Masalan: To'g'ri to'rtburchakning bo'yi 40% ga, eni 50% uzaytirildi. To'g'ri to'rtburchakning yuzi necha foizga ortadi.

Yechish: Masalani shartiga ko'ra $q=40\%$, $p=50\%$. Bu kattaliklarni (1) formulaga qo'yib so'ralgan kattalikni

$$x = (q\% + p\% + \frac{pq}{100} \%) = 40\% + 50\% + \frac{50 \cdot 40}{100} \% = 90\% + 20\% = 110\%$$

topamiz.

Xuddi shu kabi to'g'ri to'rtburchakning bo'yi $q\%$ ga eni $P\%$ ga kichiklashtirilganda ham, to'g'ri to'rtburchakning yuzasi necha foizga kamayishini hisoblash mumkin, buning uchun berilgan yuzadan, kichiklashtirishdan hosil bo'lgan yuzani ayiramiz va

$$x = (q\% + p\% - \frac{pq}{100}\%) \quad (2) \text{ formulani hosil qilamiz. [45566]}$$

Dastur kodini umumiy ko'rinishini keltiramiz:

```
program ish;
var
q,p,x:real;
begin
write('q='); read(q);
write('p='); read(p);
x:=q+p+q*p/100;
write('x=',x); end.
```

3-masala. Massasi m , konsentratsiyasi $x\%$ bo'lgan eritma massasi n , konsentratsiyasi $y\%$ bo'lgan eritma bilan aralashtirilsa, massasi $m+n$, konsentratsiyasi $z = \frac{mx+ny}{m+n}\%$ bo'lgan eritma hosil bo'ladi.

Yechish: 300 g li eritmada konsentratsiyasi 15 % bo'lgan modda miqdori $0,15 \cdot 300 = 45$ ga, 500 g li eritmada konsentratsiyasini 9% bo'lgan modda miqdori $0,09 \cdot 500 = 45$ g ga teng. Shuning uchun aralashmada bu moddaning miqdori $45+45=90$ ga teng. Aralashma $300g+500g=800g$ bo'lgani uchun 90g uning $\frac{90}{800} \cdot 100\% = 11,25\%$ ini tashkil qiladi.

Javob: 11,25%

Dastur kodini umumiy ko'rinishini keltiramiz:

```
program ish;
var
z,m,x,y,n:real;
begin
```

```

write('m='); read(m);
write('x='); read(x);
write('y='); read(y);
write('n='); read(n);
z:=(m*x+n*y)/(m+n);
write('z=',z);
end.

```

4-masala. Agar bankka Z yig`indini x foizga va y muddatga quyilgan bo`lsin, y muddatdan keyin olinadigan yig`indi hamda sof daromadni hisoblovchi dasturni tuzish talab qilinsin. Quyidagi formula yordamida hisoblang:

$$P = \left(1 + \frac{x}{100}\right)^y \cdot z \quad (1)$$

Bu yerda x-bank foyzi. y-bankka quyilgan muddat, z – bankka quyiladigan yig`indi.

Formula (1) murakkab foizni hisoblovchi ifoda.

Dastur kodini umumiy ko`rinishini kiritamiz:

```

Uses CRT;
var
x,y,z: integer;
n, m: real;
begin
//cls;
write('Foizni kiriting:');read(x);
write('Muddatni kiriting:');read(y);
write('Qoyiladigan yigindini kiriting:');read(z);
n:=power((1+x/100),y)*z;
//m:=exp(y*ln(1+x/100))*z;
m:=n-z;

```

```
writeln('Olinadigan yigindi=', n:5:2);
writeln('Sof daromad=', m:5:2);
end.
```

5-masala. Sinfdagi 25 ta o`quvchi bir-biri bilan qo`l berib ko`rishdi. Jami bunday ko`rishganlar soni nechta.

Yechish: Bizga ma`lumki, birinchi o`quvchi 24 kishi bilan qo`l berib ko`rishadi, ikkinchi o`quvchi esa 23 kishi bilan qo`l berib ko`rishadi v.k. shu tariqa oxirgi o`quvchi hech kim bilan ko`rishmaydi. Masalani yechish uchun quyidagi umumiy formulani keltiramiz: $y = \frac{n(n-1)}{2} = \frac{25(25-1)}{2} = 300$.

Dastur kodini umumiy ko`rinishga keltiramiz:

```
program ish;
var
y,n:real;
begin
write('n='); read(n);
y:=n*(n-1)/2;
write('y=',y);
end.
```

6-masala. Xodimning oylik maoshi ketma-ket ikki marta bir xil foizga oshirilgandan so`ng dastlabki maoshdan 69% ga oshgan bo`lsa, maosh har gal necha foizdan oshgan?

Yechish: Xodimning maoshi har gal bir xil x foizga oshirilgan bo`lsin. Masalaning yechilishi tushunarli bo`lishi uchun xodimning dastlabki maoshini a deb qo`shimcha o`zgaruvchi kiritishdan foydalanamiz (shartli ravishda 1 birlik deb olsak ham bo`ladi). Birinchi galda  $x$  foizga oshirilgan maoshning miqdori  $\left(a + \frac{ax}{100}\right)$  so`m bo`ladi. Ikkinchi galda yana  $x$  foizga oshirilgandan so`ng maosh

$$a + \frac{ax}{100} + \frac{ax + \frac{ax^2}{100}}{100} = a + \frac{ax}{100} + \frac{100ax + ax^2}{10000} = a \left(\frac{100 + x}{100} + \frac{100x + x^2}{10000} \right)$$

So'mni tashkil qiladi. Masalaning shartidan bu 1,69 a so'mga teng bo'lishi kerak. Shunday qilib,

$$a \left(\frac{100 + x}{100} + \frac{100x + x^2}{10000} \right) = 1,69a,$$

$$\frac{100 + x}{100} + \frac{100x + x^2}{10000} = 1,69$$

$$10000 + 100x + 100x + x^2 = 16900,$$

$$x^2 + 200x - 6900 = 0$$

tenglamani yechib, $x=30\%$ bo'lishini topamiz.

7-masala. Kommersant $a=5$ ta kostumni $b=10000$ so'mga sotib oldi va ularning har birini bir xil bahoga sotdi. Natijada u $c=45$ so'm foyda qildi. Kommersant kostumlarni necha so'mdan sotgan?

Yechish: masalaning shartidan ma'lumki, kommersant a ta kostumni jami ab so'mga sotib olgan. U har bir kostumni x so'mdan sotib, jami c so'm foyda qilgan bo'lsa, buni ushbu tenglik bilan ifodalaymiz:

$$ax - ab = c$$

Bu yerdan $x = \frac{ab+c}{a}$ bo'lib, kommersant har bir kostumni

$$x = \frac{ab+c}{a} = \frac{5 \cdot 10000 + 45}{5} = 10009 \text{ so'mdan sotgani kelib chiqadi [554545].}$$

Dastur kodini umumiy ko'rinishga keltiramiz:

program ish;

var

x, a, b, c :real;

begin

write('a=');read(a);

write('b=');read(b);

write('c=');read(c);

$x:=(a*b+c)/a;$

$write('x=',x);$

$end.$

8-masala. «Rukzak». Berilgan n predmetdan shundaylarini tanlab olish kerakki, ularning jami og'irligi 30 kg.dan kichik, qiymatlari esa eng katta bo'lsin. Tanlangan predmetlarning jami qiymati chop etilsin.

Aniqrog'i - 2 ta musbat sonli $A(n)$ va $B(n)$ massivlar berilgan. Shunday har xil juftli $i_1, i_2, \dots, i_k$ sonlarni tanlash kerakki, natijada

$$a_{i_1} + a_{i_2} + \dots + a_{i_k} < 30$$

$$b_{i_1} + b_{i_2} + \dots + b_{i_k} = \max$$

bo'lsin, faqat $\max$ miqdorini chop eting.

Izoh: predmetlarni a_i - og'irlik. b_i — qiymat, b_i/a_i — baho yoki yana qandaydir bir boshqa belgiga ko'ra o'sib borish yoki kamayib borish tartibida joylashtirilgan, deb hisoblash mumkin.

Yechish: Algoritm. «Rukzak» 30 kg.dan og'ir bo'lgan predmetlar olib tashlanib. qolganlari ma'lum bir tartibda joylashtirilgach, variantlar shajarasini quyidagicha aniqlaymiz. Navbatdagi $i=1,2,\dots,n$ yo'lda raqamli predmetni qaraymiz, i yo'lning j variantlari esa hamma vaqt ikkita bo'ladi: $j=0$ predmetni olish, $j=1$ predmetni olmaslikni bildiradi. Tarmoqlari n uzunlikka teng ikkilamchi daraxt hosil bo'ladi.

Berilgan $A[1:n]$ va $B[1:n]$ massivlardan tashqari $P[1:n]$ massiv va bir nechta o'zgaruvchi kiritamiz:

i - navbatdagi predmet raqami;

T — rukzakdagi predmetlarning og'irligi;

z - rukzakdagi predmetlarning jami qiymati;

ZM - ko'rilgan variantlarning maksimal qiymati;

$\kappa \leq i$ predmet rukzak olinsa. $P[k]=0$;

$\kappa \leq i$ predmet rukzakka olinmasa. $P[k]=1$.

Boshda i, S, Z, ZM nolga tenglashtirib olinadi. Variantlarni ko'zdan kechirishda predmetning (va uning hamma davomi) qiziqish tug'dirmashgi aniq bo'lishi bilan ko'rib chiqishni to'xtatish muhimdir. Oldinga harakat qilishda (agar $S+A[i]<30$ bo'lsa). Predmetni ruk-zakka qo'yishga intilamiz. Bu holda biz chap (tarmoq bo'yicha boramiz: $S=S+A[i] : Z=Z+B[i] : P[i]=0$).

Agar predmetni qo'shish mumkin bo'lmasa, uni olamiz (ya'ni chapga keluvchi variant tarmoqlarini tashlab borib, o'ng tarmoq bo'yicha harakallanamiz) va $P[i]=1$ deb olamiz. Ikkala holda ham eng oxirgi predmet ko'rilmaguncha oldinga harakatni davom ettiramiz.

Agar hamma variantlar ko'zdan kechirilgan bo'lsa, variant hosil qilindi. U ZM bilan taqqoslanadi:

if $ZM < Z$ then $ZM = Z$

va oxiriga qarab harakat boshlanadi.

Oldinga harakat qilishda olingan ketma-ket keluvchi predmetlarning hamma guruhi o'tkazib yuboriladi (ularda $P[i]=0$), chunki bitta shu guruhdagi o'zgarish rukzakdagi predmetlarning jami qiymatini tushiradi, xolos. Ko'rilgan predmetlar rukzakdan yo'l-yo'lakay olib tashlanadi:

if $P[i]=0$ then $S=S-A[i] : Z=Z-B[i]$.

Shundan keyin, oldin olinmagan predmetlarning butun guruhi o'tkazib yuboriladi (ularda $P[r]=1$), chunki bu guruhdagi o'zgarish oldin baholanishi kerak bo'lgan chap tarmoqqa olib keladi.

Qisqa qilib aylganda, biz $P[i]=0$ va $P[i+1]=1$ ni hosil qiladigan shunday raqamga erishgunimizcha, oxiriga qarab harakat qilamiz. Bunday harakatda rukzakdan unda mavjud bo'lgan predmetlar olib tashlanadi. Agar kerakli i bo'lmasa, ish tugatiladi.

Dastur kodini umumiy ko'rinishga keltiramiz:

Program mat;

Rukzak; const NN=100;

T=30;

```

label 1;
var
i, s, z, zm, n : integer;
A,B : array [1..NN] of integer;
P: array [1..NN] of boolean;
begin
writeln ('N:=');
readln (n);
for i:=1 to n do begin
writeln ('A[' , i, ']:='); readln (A[i]);
writeln ('B[' , i, ']:='); readln (B[i]); end;
S:=0; Z:=0; ZM:=0; i:=0;
1: for i:=i+1 to n do
if S+A[i]>=T then P[i]:=false else
begin
S:=S+A[i];
Z:=Z+B[i];
P[i]:=TRUE
end;
if zm <z then zm:=z; for i:=n-1 downto 1 do begin
if P[i+1] then begin S:=S-A[i+1]; Z:=Z-B[i+10]; end;
if P[i] and not P[i+1] then begin S:=S-A[i]; Z:=Z-B[i];
P[i]:=False; Goto 1 end; end;
writeln (ZM) end

```

9-masala. Shanba va yakshanba kungi telefon orqali so'zlashuvlarning 20 % arzonligini hisobga olgan holda so'zlashuvlar qiymatini aniqlovchi dastur tuzing.

Yechish: Quyida dastur ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Telefon orqali so'zlashuvlar qiymati.

Boshlang'ich qiymatlarni kiriting:

So'zlashuv vaqti (butun son. Minut) -> 3

Hafta kuni (1-dushanba. 7-yakshanba) -> 6

20 % arzonlashtiriladi. So'zlashuvlar qiymati: 55.2 so'm.

Shanba va yakshanba kunlari beriladigan imtiyozni hisobga olgan holda telefondan so'zlashuv qiymatini hisoblash

Dastur kodini umumiy ko'rinishga keltiramiz:

program mat;

var

Time: integer; {so'zlashuv uzunligi}

Day: integer; {hafta kuni}

Summa: real; {suzlashuv qiymati}

begin

writeln ('Telefonda suzlashuv qiymatini hisoblash.');

writeln ('Boshlangich qiymatlarni kiriting:');

write ('Suzlashuv uzunligi');

write ('(minutlarning butun miqdori)->');

readln (Time);

write ('Hafta kuni');

write ('(1-dushanba.....7-yakshanba)->');

readln (Day);

*Summa:= 20.3 * Time; {1 minut bahosi 20.3 so'm.}*

if (Day = 6) or (Day =7) then begin

writeln ('20 % li imtiyoz beriladi.');

*Summa:=Summa * 0.8;*

end;

writeln ('Suzlashuv qiymati:', Summa: 8:2, 'sum.');

readln; end.

10-masala. Foydalanuvchining optimal vaznini hisoblovchi. uni real vazn bilan taqqoslovchi va foydalanuvchiga semirish yoki ozish zaruriyati to'g'risida tavsiyalar beruvchi dastur tuzing. Optimal vazn bo'y uzunligidan (sm) 100 ni ayirish natijasiga teng. Quyida dastur ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Yechish: Bitta satrdan bo'shliq (probel) orqali bo'y (sm) va vazn (kg) qiymatlarini kiriting va <Enter>ni bosing -> 170 68

Siz 2 kg semirishingiz kerak.

Dastur kodini umumiy ko`rinishga keltiramiz:

Program mat;

var

w:real; {vazn}

h: real; {bo'y}

opt: real; {optimal vazn}

d: real; {optimal vazndan farqlanish}

begin

writeln ('Bir satrdan bushliq tashlab kiriting');

writeln ('buó (sm) va vazn (kg), keyin <Enter>ni bosing');

write ('->');

readln (h,w);

opt:=h - 100;

if w=Opt

then

writeln ('Sizning vazningiz optimal!')

else

if w<opt

then begin

d:=opt-w;

writeln ('Sizga', d:5:2, 'kg.ga semirish kerak');

```

end
else
begin
d:=w-opt;
writeln ('Siz', d:5:2, 'kg.ga ozishingiz kerak'); end; readln;
end.

```

11-masala. Foydalanuvchidan oy raqamini so'rovchi va bu oy yilning qaysi mavsumiga tegishli ekanligi to'g'risida javob beruvchi dastur tuzing. Agar foydalanuvchi mumkin bo'lmagan son kiritrsa, dastur xato son berilganligi to'g'risida axborot chiqarsin.

Yechish: Quyida dastur ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan.

Oy raqamini kiriting (1 dan 12 gacha) va <Enter>ni bosing -> 11 Qish.

```

Program mat;
var
oy: integer; {oy raqami}
begin
writeln ('Oy raqamini kiriting (1 dan 12 gacha bulgan sonlar)va <Enter>ni
bosing');
write ('->');
readln (oy); case oy of
1,2,12:   writeln ('Qish');
3.. 5:    writeln ('Bahor');
6.. 8:    writeln ('Yoz');
9.. 11:   writeln ('Kuz');
else      writeln ('Son 1 dan 12 gacha bulishi kerak');
end; readln;
end.

```

12- masala. Shaharlararo telefon orqali so'zlashuv qiymatini hisoblovchi dastur tuzing (u minut bahosi — abonentning shahargacha bo'lgan masofasi — uzunligi bilan aniqlanadi). Dastur uchun shahar kodi va so'zlashuv vaqti boshlang'ich qiymatlar bo'lib xizmat qiladi.

Yechish: Quyida dastur ishlash vaqtida tavsiya qilinadigan ekran ko'rinishi berilgan. Telefon orqali so'zlashuvni hisoblash.

Boshlang'ich qiymatlarni kiriting: Shahar kodi -> 371

So'zlashuv vaqti (butun son minut) -> 3

Shahar Toshkent. Minut bahosi: 150 so'm. So'zlashuv bahosi: 450 so'm.

Dastur kodini umumiy ko`rinishga keltiramiz:

program mat;

var

kod: integer; {shahar kodi}

baho: real; {minut bahosi}

uzun: integer; {so'zlashuv uzunligi}

summ: real; {so'zlashuv qiymati}

begin

writeln ('Telefonda suzlashuv qiymatini hisoblash.');

writeln ('Boshlangich qiymatlarni kiriting:');

write ('Shahar kodi ->');

readln (kod);

write ('Suzlashuv uzunligi (minutning butun miqdori) - >');

readln (uzun);

write ('Shahar');

case kod of

371: begin

writeln ('Toshkent');

baho:= 150; end;

366: begin

```
writeln ('Samarqand'); baho:=120; end;  
315: begin  
writeln ('Qarshi'); baho:=100; end;  
365: begin  
writeln ('Buxoro'); baho:=130; end;  
end;  
summ := baho * uzun;  
writeln ('Minut bahosi:', baho: 6:2,'sum.');
```

writeln ('Suzlashuv qiymati:', summ: 6:2,'sum.');

```
readln;  
end .
```

2.2. Paskal dasturlash tilini fizik masalalariga tadbiqu.

Fizika-matematikada, jumladan, boshqa sohadagi masala va misollarni matematik modelini tuza olsak, ya'ni matematik formulalar orqali ifodalash mumkin bo'lsa, albatta bu masalani birorta algoritmik til yordamida dasturlash mumkin.

Yuqoridagi fikrning isboti sifatida Umumiy fizikada uchraydigan shunday masalalardan ba'zilarini paskal tilida dasturlash masalalariga to'xtalib o'tamiz. Biz bu ishni bajarishda 10-11-sinflar hamda abituriyentlar uchun mo'ljallangan fizikadan masalalar to'plami (A.Rimkevich, R.S. Areslov va boshqalar, M.Ismoilov, M.S. Yunusov) kitobidagi masalalardan tanlaymiz.

1-masala. Okeanalogik tekshirishlarda okean tubidan tekshirish uchun loy olish maqsadida po'lat arqondan foydalanib maxsus asbob tushirilgan. Bunda botish chuqurligining chegarasi qanday bo'lishi kerak, ya'ni uzulish chegarasi? Bunda asbobining og'irligi hisobga olinmasin.


Berilgan masalani yechish uchun dastlab matematik modelini tuzib olish lozim, buning uchun esa albatta fizikaviy jarayonlar hisobga olinadi.

Berilgan

$\rho_{den.suv} = 1030 \text{ kg/m}^3$	Po'lat arqonga ta'sir etuvchi
kuchlar	
$\rho_{po'lat} = 7800 \text{ kg/m}^3$	F_{el} – Elastiklik kuchi yuqoriga
$\sigma_{must.cheg} = 500 \text{ MPa}$	F_{arx} – Arximed kuchi yuqoriga
$L_{po'lat.uz} = ?$	$F_{og'}$ – Og'irlik kuchi.

Bu kuchlar o'rtasidagi munosabat quyidagicha:

$$F_{el} + F_{arx} \geq F_{og'}$$



Okean tubiga tushurilgan po'lat arqonga ta'sir etuvchi og'irlik kuchi va unga qarshi yo'nalgan F_{arx} va F_{el} kuchlarning yig'indisiga F_{og} kuchini tenglashtirib po'lat arqonning uzunligini topishimiz mumkin.

$$\sigma_{must} \cdot S + \rho_s \cdot g \cdot V = \rho_p \cdot V \cdot g \quad \text{bundan} \quad \rho_{must} \cdot S + \rho_s \cdot g \cdot S \cdot L_p = \rho_p \cdot S \cdot L_p \cdot g$$

Bu ifodani soddalashtirgaimizdan so'ng quydagi ko'rinishga keladi.

$$L_p = \frac{\sigma_{must}}{(\rho_p - \rho_s) \cdot g} = \frac{500 \cdot 10^6}{6770 \cdot 10} \approx 7385,5 \text{ m}$$

Demak, okean tubiga tushurilgan po'lat arqon 7385,5 m dan oshmasligi kerak, agar po'lat arqon 7385,5 m dan ohsa uzulish ehtimoli oshadi.

Masalani yechishdan maqsad ekspeditsiya o'tkazishdan oldin ixtiyoriy arqonni uzulish chegarasini oldindan aniqlash mumkin.

Endi bu masalaning paskal tilidagi dasturini tuzishga harakat qilib ko'ramiz.

Dasturda o'zgaruvchilarni kiritish osonroq bo'lishi uchun ularni quyidagicha nomlab olamiz:

$$L_{po'lat,uz} \rightarrow A, \quad \sigma_{must} \rightarrow B, \quad \rho_s \rightarrow C, \quad \rho_p \rightarrow D, \quad g \rightarrow g.$$

Dastur kodini umumiy ko'rinishga keltiramiz:

```
program fiz1;
var
  k,A,B,C,D,g,E: real;
begin
  write('B='); readln(B);
  write('C='); readln(C);
  write('D='); readln(D);
  write('g='); readln(g);
  k:=D-C;
  A:=B/k*g;
  Writeln('A ning uzunligi=', A:2:1); end.
```

Yuqorida qo'yilgan masalada po'lat arqoning mustahkamlik chegarasini dengiz suvida hisoblab ko'rdik, xuddi shu holni havoda ham kuzatish mumkin. Masalan, vertolyotga po'lat yoki boshqa metall arqonni osib mustahkamlik chegarasini oldindan aniqlash mumkin.

Quyidagi masalada shunday savol tug'lishi tabiiy. Dasturda ρ_p, ρ_s, g larning qiymatlariga manfiy sonlarni kiritish mumkinmi degan savol tug'iladi. Bu mumkin emas, chunki fizikaviy kattaliklar zichlik va erkin tushish tezlanishlarining son qiymatlari hech qachon manfiy bo'lmaydi, mustahkamlik koeffitsiyenti uchun esa $\rho_p \neq \rho_s$ shartning bajarilishi zarur va yetarli. Agar bu shartlar bajarilmasa masala ma'noga ega bo'lmaydi.


2 -masala. Yer sirtiga nisbatan qo'zg'almay turgandek ko'rinadigan barqaror suniy yo'ldosh aylanaviy orbitasining radiusini aniqlang.

Berilgan: $T=1$ sutka= 86400 s, $R=6,37 \cdot 10^6$ m.

Toppish kerak: r - ?

Yechish: a) avvalo masala shartiga yetarlicha oshkor bo'lmagan kattalikka aniqlik kiritaylik. Masalada takidlanishicha, yer sirtidagi kuzatuvchi uchun yo'ldosh qo'zg'almay turgandek, ya'ni "osib quyilgandek" ko'rinadi. Bunday hol amalga oshishi uchun yo'ldoshning aylanish davri yerning o'z o'qi atrofidagi aylanish davriga aynan teng bo'lishi kerak. Bundan tashqari yo'ldoshning aylanish yo'nalishi ham yernikidek bo'lishi kerak. Shuning berilgan kattaliklar ruyxatiga $T=1$ sutka deb yozdik.

b) r radiusli aylanaviy orbita bo'ylab harakatlanayotgan yo'ldoshga qarama-qarshi yo'nalgan ikki kuch ta'sir etadi. (1-rasm) biri yo'ldoshning og'irlik kuchi, uning qiymati butun olam tortishish qonuniga asosan



1-rasm.

$$F = G \frac{M \cdot m}{r^2} \quad (1)$$

